

*Karimov H.O, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasi o`qituvchisi  
Ibodullaeva N.E, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasi kamma o`qituvchisi*

## **RANGLARNING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI**

Sharq san'atida rang har doim nihoyatda katta rol o`ynagan. Har bir rang o`ziga xos ramziylikka, falsafiy ma'noga ega bo`lgan. Ranglar orqali insonlar salomatligi yaxshilangan. Bobolarimiz Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur rang nomlaridan mohirona foydalangan.

Ota –bobolarimiz ranglarning hamma xususiyatlarini yaxshi bilganlar. Ular atrofimizni o`rab turgan tabiat ranglariga shaydo bo`lganlari uchun zangori, lojuvard va yashil ranglarni ayniqsa, ko`p ishlatganlar.

Binolarning koshin va parchin sirlarini oftob nurida tovlanishini hamda atrofdagi ranglar bilan bog`lanishini hisobga olib, munosib bo`yoqlar tanlaganlar. Parchin va koshinlarda asosan, lojuvard, zangori, yashil, sariq va oq ranglar ishlatganlar. Ular osmon, yer, terilgan pishiq g`isht rangi bilan juda yaxshi bog`laganlar.

Har bir rangning o`z mazmuni va asoslangan manbai bo`ladi. Ko`m – ko`k, ya`ni havorang - ota bo`yoq koinotni eslatadi. Yashil rang – ona bo`yoq er yuzidagi yam- yashil tabiat ramzidir. Ular aralashmasida hosil bo`lgan ranglardan xuddi onalik va otalik mehri kelib turgandek tuyuladi.

Mashhur Yevropa olimlari I.Nyuton, M.V.Lomonosov, G.L.Gelmgols ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirishgan. M.V.Lomonosov fanda birinchi bo`lib, asosiy ranglarni kashf etgan. Isaak Nyuton qator tajribalar o`tkazib, oq yorug`likni ko`p rangli ekanligini isbotlagan. Ekranda spektr ranglarini hosil qilgan.

I. Nyuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o`rgangan bo`lsa, nemis shoiri va san'atshunosi I.V.Gyoteni ranglarning kishi organizmiga ko`rsatadigan ta'siri ko`proq qiziqtirgan.

Nemis olimi va shoiri, rangshunos Gyote o`zining “Ranglar nazariyasi” nomli mashhur asarida “Sariq rang ko`zni quvontirib, yurakni kengaytiradi, uni ko`rganda ruhimiz tetik bo`ladi va biz darhol iliqlikni his etamiz”, - deb yozgan edi. Gyotening fikricha, zangori rang sovuq hissiyotni uyg`otsa, qizil rang seskantiruvchi, yashil rang ezgulik, xotirjamlik hislarini paydo qiladi. Yashil rangni Gyote ko`zni va ko`ngilni tinchlantiruvchi ta`sirga ega deb hisoblaydi.

Qizil rang qo`zg`atuvchi, hayajonlantiruvchi, isituvchi xususiyatlarga ega bo`lsa sariq rang iliq, tetiklashtiruvchi, quvnoq, xushchaqchaq kayfiyat bag`ishlash xususiyatlariga egadir. Och yashil rang tinchlantiruvchi hisoblanib, kishida yoqimli kayfiyat paydo qiladi. Uning tuslari turli hissiyotlarni uyg`otuvchi, zangori rang xotirjamlik, jiddiylik, g`amginlik, ma'yuslik uyg`otuvchi sifatlarga ega.

Binafsha rang kishilar e'tiborini o`ziga tortuvchi, shu bilan birga o`zidan itarish xususiyatlariga ega bo`lib, kishilarda g`amginlik va o`ychanlik uyg`otadi. Ranglarning kishilarga ta'siri to`g`risida fransiyalik olim Jak Vinoning fikrlari diqqatga sazovordir. U rangning inson ongi kayfiyatiga ta'siri haqida gapirib, rang kishida xotirjamlik va hayajonni hosil qilishi, hatto inson qalbini larzaga solishi, ba'zi hollarda sog`ligini falokatga giriftor etishi mumkinligi haqida yozgan edi.

Xorijiy mamlakatlarda ranglarning inson ruhiyatiga ta'sirini yaxshi bilgan tadbirkor-biznesmenlar savdo ishlarini yaxshilash maqsadida restoranlar, savdo uylarining, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning kishilar e'tiborini o`ziga tortadigan ranglar bilan bo`yalishiga alohida e'tibor qaratadilar. Bu ishlar doimo o`z samarasini berib kelgan.

Ba'zi psixoterapevt, nevropotologlar kasallarni davolashda ham ranglardan keng foydalanmoqdalar. Bunda ular ko`proq tinchlantiruvchi yashil, zangori ranglarning turli tuslaridan bemorlar davolanayotgan xonalarni bo`yash, yashil chiroq, ranglarning musiqa bilan hamohang taralishi orqali kasallarga

ta'sir ko`rsatib, ijobiy natijalarga erishmoqdalar. Binobarin, ranglarning inson ruhiyatiga ta'siri ayniqsa, libos dizaynerlari tomonidan yengil sanoatda keng tatbiq etiladi.

Xalqimiz ranglarning inson ruhiyatiga ta'sirini tushungan holda qadimdan yoshiga yarasha madaniyat bilan kiyinib kelgan. Xususan, bolalar, o`rta yoshlilar, qariyalarning, shuningdek, ayol va erkaklarning kiyim ranglari bir - birlaridan keskin farq qilgan. Erkaklar kiyimlarining ranglari jiddiy va vazmin, ayollarniki go`zal, jozibador va viqorli bo`lgan.

Qariyalarning kiyimlari esa sodda va vazmin, kishi e'tiborini tortmaydigan ranglarda tayyorlangan. Kiyimlarning ranglari ba'zan kishilarning xarakterini ham belgilab beradi.

### **Adabiyotlar.**

1. Abdirasilov S., Boymetov B., Tolipov N. «Tasviriy san`at». - T.: Ilm-Ziyo, 2006.
2. Abdirasilov S., N. Tolipov N. «Tasviriy san`at o`qitish metodikasi». -T 2007.
3. Abdirasilov.S., Tasviriy va amaliy san`at. -T., 2002.